



Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

FARZAND TARBIYASIGA OID XORIJ OLIMLARINING QARASHLARI

Annotatsiya. *Farzand tarbiyasi pedagogik, psixologik, tibbiy jihatdan juda murakkab va muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Maqolada xorij olimlarining farzand tarbiyasiga oid yondoshuvlari tahlil qilinadi. Farzandni to'g'ri tarbiyalash, ma'naviy, aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom shaxs sifatida shakllanishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *Воспитание ребенка — очень сложный и важный процесс с педагогической, психологической и медицинской точки зрения. В статье анализируются подходы зарубежных ученых к воспитанию детей. Приведены сведения о научных исследованиях, проводимых по вопросам правильного воспитания ребенка и формирования здоровой личности в духовном, психическом, духовном и физическом плане.*

Annotation. *Child rearing is a very complex and important process from a pedagogical, psychological, and medical point of view. The article analyzes the approaches of foreign scientists to child rearing. Information is provided on scientific research conducted on the proper upbringing of a child, his formation as a healthy person in spiritual, mental, spiritual, and physical aspects.*

Kalit so'zlar: *oila, farzand, ota-ona, tarbiyachi, yoshlar, ma'naviyat, axloq, jamiyat, tarbiya.*

Ключевые слова: *семья, ребенок, родители, воспитатель, молодежь, духовность, нравственность, общество, воспитание.*

Keywords: *family, child, parent, educator, youth, spirituality, morality, society, upbringing.*

Kirish. Farzand tarbiyasi insonning ma'naviy, axloqiy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada ota-onalar va tarbiyachilarning faoliyati juda muhim o'rin tutadi. Ular bolaning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida mas'uliyat bilan yondashishlari zarur. To'g'ri tarbiya topgan farzand sog'lom fikrli, ma'naviy jihatdan boy, axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan shaxs sifatida ulg'ayadi. Jamiyatning barqarorligi, tinchligi va rivojlanishida ilmiy salohiyatli yoshlar muhim rol o'ynaydi.

Farzand tarbiyasi, kelajagi va manfaatlari haqida so'z borganda bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi" – degan so'zlarning bitib qo'yilgani yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida hozirgidek asosiy muammolardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi¹.

Asosiy qism. Xorij olimlari bolalar tarbiyasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va o'zlarining pedagogik metodologiyalari bilan tanilishgan. Farzand tarbiyasi ham ijtimoiy, ham psixologik jarayon sifatida juda murakkab va muhim ahamiyatga ega. Juda ko'plab xorijiy olimlar bola tarbiyasiga doir ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan va ularning yondoshuvlari tarbiya metodologiyasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqolada biz Jean Piaget (Shveytsariya), Lev Vygotsky (Rossiya), Maria Montessori (Italiya), John Bowlby (Buyuk Britaniya), Albert Bandura (Kanada) va Erik Erikson (AQSH) kabi mashhur olimlarning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini tahlil qilamiz.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi asoschisi Jean Piaget bolalar rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib, har bir bosqichda bolaning tafakkuri va bilish qobiliyatlari qanday o'zgarishini o'rgangan. U bolalarni faol o'rganuvchilar sifatida ko'radi va tarbiyada ularga yordam berish, ularning tafakkurini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, tarbiya bolaning yoshiga mos ravishda amalga oshirilishi kerak, chunki har bir yosh bosqichida bolaning kognitiv va hissiy rivojlanishi o'zgaradi. Tarbiya bolaning o'ziga xos rivojlanish jarayonlarini hisobga olib tashkil qilinishi kerak. Piagetning fikricha, bolalarning intellektual qobiliyatlari vaqt o'tishi bilan biologik moyilliklarga va ularning dunyo

Kognitiv rivojlanish nazariyasi asoschisi Jean Piaget bolalar rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib, har bir bosqichda bolaning tafakkuri va bilish qobiliyatlari qanday o'zgarishini o'rgangan. U bolalarni faol o'rganuvchilar sifatida ko'radi va tarbiyada ularga yordam berish, ularning tafakkurini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

¹ Фармонова Музеймхон. Шарқ мутафаккирларининг маънавий меросида фарзанд тарбияси. / Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент, 2020. 36 б. https://api.moiti.uz/media/book/%D0%A8%D0%B0%D1%80%D2%9B_%D0%BC%D1%83%D1%82%D0%B0%D1%84%D0%B0%D0%BA%D0%BA%D0%B8%D1%80%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3_3.pdf

bilan individual o'zaro ta'siriga qarab o'zgaradi. U o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'limni tanqid qilgan. Sababi u bolaning o'rganishini nazorat qiluvchi o'qituvchilar va tarbiyachilar bolani passiv rolga qo'yishiga ishongan². Piaget bolaning rivojlanishini quyidagi 4 bosqichga ajratgan (1-jadval).

1-jadval.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bosqichlari

Sensomotor bosqichi (0-2 yosh)	Bola tashqi dunyo bilan birinchi marta tanishadi, narsalarni tatib ko'rish, hidlash, teginish, eshitish va atrofdagi narsalarni harakatlantirish orqali ya'ni sezgi azolari orqali o'rganadi
Operatsiyadan oldingi bosqich (2-7 yosh)	Bola tasavvurlarni shakllantira boshlaydi, lekin mantiqiy fikrlash imkoniyatlari hali to'liq rivojlanmagan bo'ladi
Operatsiya bosqichi (7-11 yosh)	Bola mantiqiy fikrlashni boshlaydi
Rasmiy operatsiya bosqichi (12 yosh va undan yuqori)	Aniq va mavhum nazariy tushunchalarni anglash imkoniyati rivojlanadi

Lev Vygotsky esa bolalar rivojlanishini faqat biologik omillar bilan bog'lamay, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham muhim deb hisoblagan. Uning fikricha o'rganish va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlar bolalik davrida boshqalar bilan ijtimoiy aloqalar orqali rivojlanadi. Madaniyat va atrof-muhit kognitiv rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Ota-ona tomonidan farzandining o'zlashtirishiga yordam bermasligi yoki aksincha, unga ko'p yordam berishi bolaning kognitiv rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. U boshqa odamlar bilan ijtimoiy aloqalar bolaning o'rganishi va rivojlanishiga yordam beradi, deb hisoblagan. Shuningdek, bolalar o'rganish va rivojlanish jarayonida o'z ota-onalari, o'qituvchilari va jamiyatdan yordam olishlari zarur. Ota-onalar va kattalar bolalar bilan o'zaro faol muloqotda bo'lishlari kerakligi haqida aytib o'tgan³.

Yan Amos Komenskiyning fikricha bola egallagan qobiliyat unga Xudo tomonidan beriladi va unga beriladigan tarbiya jarayonida rivojlanadi. U insonning rivojlanishida tarbiyaning o'rni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli ma'lumotli qilib

² Jennifer Paris, Antoinette Ricardo, & Dawn Rymond. Child Growth and Development. 2019. <https://docs.google.com/document/d/1wjD-vdmYPhdirIWczCCqEDxqmeMzaA4-/edit>

³ Шимаева Л.Р., Тагирова Р.А. Теория когнитивного развития Вygотского. Журнал Достижения науки и образования. 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-kognitivnogo-razvitiya-vygotskogo>

yetishtirish mumkin degan fikrni ilgari suradi, bolani yoshlik chogʻidan jismonan sogʻlom, maʼnaviyatli qilib tarbiyalashni talab qiladi.

Olim tarbiya haqida fikr yuritganda induktiv metodga asoslanadi, yaʼni u tajribaga suyanadi, ilmiy asoslardan xulosalar keltiradi. Taʼlim-tarbiya jarayonida bola dastlab hissiy bilishga, soʻngra, aqliy bilishga oʻrgatilmogʻi lozimligini taʼkidlaydi. Biror fazilatni oʻylab topib, uni insonga majburan yopishtirish kerak emasligi, balki insonda mavjud boʻlgan hislatlarni aniqlash va rivojlantirish lozim deb hisoblaydi.

Komenskiy oʻz pedagogik qarashlarida “insonni tabiatni bir qismi deb hisoblaydi va tabiatdagi barcha mavjudodni yagona bir qonunga boʻysunadi”, degan gʻoyani olgʻa suradi. Unga koʻra, taʼlim-tarbiya jarayonini, bolalarga narsa va mavjudodlarni tanishtirishdan, ularni idrok qildirishdan boshlash, undan keyin esa ularga xos xususiyatlarni oʻrganishga oʻtish zarur.

Komenskiy bolaning yosh xususiyatlarni hisobga olish asosida taʼlim berish uygʻun boʻladi.

U barcha bolalar bilimlarni idrok qilishga qodir deb hisoblab, “barchani hamma narsaga oʻrgatish” zarurligini, taʼlimning barcha uchun umumiy boʻlishini talab qiladi.

Komenskiy maktab bolalariga har tomonlama bilim berish, ularning aql-idroki, axloqi, his-tuygʻulari va irodasini rivojlantirishi lozimligini taʼkidlaydi⁴.

Komenskiy inson rivojlantirishini toʻrt bosqichga: goʻdaklik, bolalik, oʻsmirlik, yetuklik davrlariga boʻladi. U farzand tugʻilganidan boshlab 6 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun alohida onalar maktabini ochishni, ularga onalar rahbarligida taʼlim va tarbiya berishni tavsiya etgan. Uning tavsiyasi boʻyicha, 6 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan bolalar taʼlim ona tilida olib boriladigan maktablarda taʼlim oladilar. Uningcha, har bir oila, har bir xonadon ona maktabi deb hisoblanishi lozim, chunki tarbiya dastlab oilada beriladi.

Erik Erikson bolalarning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni oʻrganib, ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishning zarurligini taʼkidlagan. Unga koʻra, tarbiyachi gʻamxoʻr va ishonchli boʻlsa, bolada dunyoga va odamlarga nisbatan ishonch xissi paydo boʻladi. Agarda, tarbiyachi yetarlicha mehribon va gʻamxoʻr boʻlmasa, bolada dunyoga nisbatan qoʻrquv, insonlarga nisbatan ishonchsizlik xissi shakllanishi mumkin. Shuning uchun bola oʻzining kimligini va atrofdagi dunyoni qanday qabul qilishini tushunishi kerak. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga koʻra, ota-onalar farzandlariga hayotda oʻz oʻrinlarini

***Komenskiy
oʻz pedagogik
qarashlarida
“insonni tabiatni
bir qismi deb
hisoblaydi va
tabiatdagi barcha
mavjudodni yagona
bir qonunga
boʻysunadi”, degan
gʻoyani olgʻa
suradi.***

⁴ Коменский Я.А. Буюк дидактика. Тошкент, 1975. – Б. 242.

***John Bowlby
bolalar
rivojlanishidagi
ota-onalar
bilan o‘zaro
bog‘lanishning
muhimligini
ta’kidladi. Uning
nazariyasiga ko‘ra,
bolaning ota-onasi
bilan mustahkam
va ishonchli
bog‘lanish
o‘rnatishi uning
kelajakdagi
ijtimoiy va hissiy
rivojlanishiga ta’sir
qiladi.***

topishiga va kim bo‘lishlarini aniqlashlariga yordam berishlari kerak. Bu jarayon bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatiga va o‘zini hurmat qilishiga yordam beradi⁵.

John Bowlby bolalar rivojlanishidagi ota-onalar bilan o‘zaro bog‘lanishning muhimligini ta’kidladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, bolaning ota-onasi bilan mustahkam va ishonchli bog‘lanish o‘rnatishi uning kelajakdagi ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Bowlby tarbiyaning birinchi bosqichlarida ota-onalar o‘rtasidagi mustahkam hissiy bog‘lanishning ahamiyatini, bola uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishni ko‘rsatadi. Bu bolaning kelajakdagi hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlaydi⁶.

Bugungi kunda jahon maktabgacha ta’lim tizimida italiyalik mashhur pedagog Mariya Montessorining mualliflik metodikasi juda keng tarqalgan. U o‘z metodikasida bolalar rivojlanishining tabiiy jarayoniga asoslanadi va farzand tarbiyasida erkin o‘rganishga e’tibor beradi. U bolalarga o‘zlarini mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatlarini yaratish, ularni o‘z o‘rinlarida va faoliyatda o‘qitishni tavsiya qiladi. Montessori metodikasi bo‘yicha bola mashg‘ulotlarni o‘zining qiziqishlaridan kelib chiqib, o‘zi tanlagan usulda bajaradi. Montessori usuli maxsus o‘yin va ta’lim usullarini birgalikda qo‘llash orqali bolalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishga imkon beradi. Bu usulda tarbiyalanayotgan bola vazifalarni majburlikdan emas balki, o‘zi xohlab bajaradi. Ushbu yondoshuv bolalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga, mustaqil bo‘lishiga va imkoniyat yaratadi⁷.

Albert Bandura o‘zining “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”da bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida ijtimoiy ta’sirning muhimligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, bolalar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatib o‘rganadilar, bu jarayon «ijtimoiy o‘rganish» deb ataladi. Tarbiya jarayonida ijobiy model va tajribalar bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Bandura bolalarni boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatib o‘rganishga, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradigan muhit yaratishga e’tibor qaratadi⁸. (2-jadval)

⁵ Saul McLeod, PhD. Erik Erikson’s Stages of Psychosocial Development. 2024. <https://www.simplypsychology.org/erik-erikson.html>

⁶ Kendra Cherry, MEd. What Is Attachment Theory? 2023. <https://www.verywellmind.com/what-is-attachment-theory-2795337>

⁷ Charlotte Ruhl, MSc. Montessori Theory of Education. 2024. <https://www.simplypsychology.org/montessori-method-of-education.html>

⁸ Saul McLeod, PhD. Albert Bandura’s Social Learning Theory. 2024. <https://www.simplypsychology.org/bandura.html>

2-jadval.

**Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bo'yicha
kuzatuv ta'limining uchta asosiy modeli**

Jonli model	Haqiqiy shaxsning xatti-harakatlarini kuzatish
Og'zaki ta'lim modeli	Xulq-atvorning batafsil tavsiflarini tinglash va keyin ushbu tavsif asosida harakat qilish
Ramziy model	Xatti-harakatlar namoyish etiladigan kitoblar, filmlar, televizor yoki onlayn media kabi ommaviy axborot vositalari orqali o'rganish

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bola tarbiyasida otalar va jamiyatning rolini e'tirof etish hamda ular bilan ijtimoiy muloqotga katta e'tibor qaratish zarur. Farzand tarbiyasiga oid xorij olimlarining qarashlari bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, tarbiya jarayonining ko'plab jihatlarini o'rganishga yordam beradi. Yuqoridagi tadqiqot ishlaridan ko'rinadiki, ota-ona va tarbiyachilar tomonidan bolaning fikrlari va qiziqishlarini hisobga olish, u bilan hamsuhbat bo'lish, ilm olishga yo'naltirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash barkamol shaxsni tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фармонова Музайямхон. Шарқ мутафаккирларининг маънавий меросида фарзанд тарбияси. / Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент, 2020. 36 б. https://api.moiti.uz/media/book/%D0%A8%D0%B0%D1%80%D2%9B_%D0%BC%D1%83%D1%82%D0%B0%D1%84%D0%B0%D0%BA%D0%BA%D0%B8%D1%80%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3_3.pdf
2. Jennifer Paris, Antoinette Ricardo, & Dawn Rymond. Child Growth and Development. 2019. <https://docs.google.com/document/d/1wjD-vdmYPhdirIWczCCqEDxqmeMzaA4-/edit>
3. Шимаева Л.Р., Тагирова Р.А. Теория когнитивного развития Выготского. Журнал Достижения науки и образования. 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-kognitivnogo-razvitiya-vygotskogo>
4. Коменский Я.А. Буюк дидактика. Тошкент, 1975. – Б. 242.
5. Saul McLeod, PhD. Erik Erikson's Stages of Psychosocial Development. 2024. <https://www.simplypsychology.org/erik-erikson.html>
6. Kendra Cherry, MEd. What Is Attachment Theory? 2023. <https://www.verywellmind.com/what-is-attachment-theory-2795337>
7. Charlotte Ruhl. MSc Montessori Theory of Education. 2024. <https://www.simplypsychology.org/montessori-method-of-education.html>
8. Saul McLeod, PhD. Albert Bandura's Social Learning Theory. 2024. <https://www.simplypsychology.org/bandura.html>